

“TASDIQLAYMAN”
O‘zgidromet Bosh direktori



Sh. Khabibullayev

2022- yil “ ___ ” _____

**Gidrometeorolojiya xizmati markazining Xotin-qizlar va erkaklar
uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta’minlash masalalari bo‘yicha
Maslahat kengashi yig‘ilishining
3-sonli BAYONI**

2022- yil “ 30 ” iyun

Toshkent shahri

Raislik qiluvchi: N.Mukxamedova – Maslahat-kengashi raisi

Qatnashdilar: O‘zgidrometning Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari ta’minlash masalalari bo‘yicha maslahat kengashi a‘zolari
(ro‘yxat bo‘yicha)

KUN TARTIBI:

O‘zbekiston Respublikasining “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonuni ijrosini ta’minlash maqsadida O‘zgidrometda “Oila va xotin-qizlar masalasi bo‘yicha boshlang‘ich tashkilot” tartibini ishlab chiqish” to‘g‘risida

(Mukxamedova, Oripova, Ruzayeva, Obidova, Samadxodjayeva, Isxakova, Mukxamedova)

O‘zbekiston Respublikasining “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonuni ijrosini ta’minlash yuzasidan O‘zgidrometda “Oila va xotin-qizlar masalasi bo‘yicha boshlang‘ich tashkilot” tartibini ishlab chiqish va muhokama qilish bo‘yicha yig‘ilish bo‘lib o‘tdi.

Yig‘ilishni Maslahat-kengashi raisi O‘zgidromet 1-bo‘lim yetakchi mutaxassisi N.Muhamedova kirish so‘zi bilan ochib berdi. Oila va xotin-qizlar davlat qo‘mitasining xotin-qizlar masalalari bo‘yicha boshlang‘ich tashkilotlari to‘g‘risidagi Tartib bilan tanishtirdi va O‘zgidrometda Oila va xotin-qizlar davlat qo‘mitasining xotin-qizlar masalalari bo‘yicha boshlang‘ich tashkilotlarining

asosiy vazifalari va maqsadlari, huquq va majburiyatlari, shuningdek faoliyatini tashkil etish tartibini belgilash hamda hududiy boshqarmalar bo'linmalari tomonidan xotin-qizlar faollari bilan hamkorlikda muvofiqlashtirish to'g'risida kelishib olindi.

Shundan so'ng Kadrlar bo'limi — D. Samadxodjayeva so'zga chiqib, O'zgidromet tizimida 5 yildan kam bo'lmagan muddatda ishlab kelayotgan xodimlarga O'zbekiston Milliy Universiteti Hidrometeorologiya fakultetiga suxbat asosida o'qishga qabul qilish joriy etilganligi, to'g'risida ma'lumot berib o'tdi.

Shundan so'ng O'zgidromet Moddiy – texnika ta'minoti boshqarmasi boshliq o'rinbosari S. Oripova va Moliya-iqtisod boshqarmasi Reja-iqtisod bo'limi bosh mutaxassisi — I. Obidova joriy yilning 17-iyun kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasida barcha vazirlik, idora hamda muassasalarda xotin-qizlar masalalari bo'yicha faoliyati yo'lga qo'yilgan boshlang'ich tashkilotlari raislarining 1-umumiy anjumanida ishtirok etishgani va mazkur anjuman Respublikada birinchi bor o'tkazilayotgan bo'lib ishtirokchilar tomonidan katta qiziqish bilan savol-javoblar va diskutsiya shaklida tashkil etilganligi;

Hususan, anjuman ishtirokchilari tomonidan:

1. Eng avvalo, ishtirokchilar Oila va xotin-qizlar davlat qo'mitasi faoliyati nafaqat xotin-qizlar masalalari, balki bevosita oilaviy masalalar bilan bog'liqlini, oiladagi ma'naviy-ahloqiy muhit barqarorligini oshirishdan iborat ekanligini inobatga olib “Oila va xotin-qizlar masalalari bo'yicha boshlang'ich tashkilot raisi” maqomi berilishi yuzasidan taklif kiritdilar.

2. Bugungi kunda vazirlik, idora va muassasa va har qanday mehnat jamoalarida kadrlar zahirasi yaratilishi, aynan mehnat jamoasining kadrlar bo'limi tomonidan amalga oshirilishi, bunda bevosita faqatgina Xodimlar bilan ishlash bo'limi hamda jamoa rahbariga ya'ni inson omiliga bog'liq bo'lib qolishi hech kimga sir emas. Shu munosabat bilan davlat rahbari talab darajasida kadrlar zaxirasi yaratish, va ular bilan ishlash masalasida aynan xotin-qizlar masalalari bo'yicha boshlang'ich tashkilot raisiga vakolat berilishi maqsadga muvofiqligi taklifi berildi.

3. Vazirlik, idora, tashkilot va muassasalarda o'tkaziladigan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar uchun mehnat jamoasi rahbari tomonidan alohida mablag' ajratish hamda bu borada xotin-qizlar masalalari bo'yicha boshlang'ich tashkilot raisiga tashkiliy masalalarda ko'maklashish bo'yicha turli taklif va mulohazalar bildirilganligi to'g'risida ma'lumot berdi.

Shuningdek, O'zgidrometning Axborot-xizmati bo'limi – M. Ruziyeva so'zga chiqib, mazkur anjumanda Oila va xotin-qizlar davlat qo'mitasi va Nodavlat notijorat tashkilotlari milliy assotsiatsiyasi o'rtasida xotin-qizlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlashning normativ-huquqiy bazasini takomillashtirish borasida hududlarda, ayniqsa, qishloqlarda xotin-qizlarga ko'rsatiladigan tibbiy-ijtimoiy xizmatlar sifatini oshirish onalik va bolalikni muhofaza qilish choralarini kuchaytirish borasida tibbiy yordamga muhtoj xotin-qizlarni aniqlash va manzilli ro'yxatlarini shakllantirish, oilalarni mustahkamlash, qizlarning ta'lim-tarbiyasi,

ma'naviy dunyoqarashini yuksaltirish, shuningdek, ularning madaniy hordiq chiqarishlari uchun shart-sharoitlarni yaratish, fuqarolik jamiyati institutlari bilan uzviy hamkorlikni yo'lga qo'yish kabi muhim vazifalarni manzilli amalga oshirish maqsadida hamkorlik Memorandumi imzolanganligi to'g'risidagi ma'lumotlari tinglandi.

Shundan so'ng, Murojaatlar bilan ishlash va ijro bo'limi yetakchi mutaxassisi – D. Isxakova O'zgidromet tizimiga 2022- yilning 1-yarim yilligida jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarning buzilishiga doir murojaatlar kelib tushmaganligi to'g'risida axborot berdi.

Gidrometeorologiya xizmati markazining Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta'minlash masalalari bo'yicha maslahat-kengashi nizomiga muvofiq, Kengash kun tartibidagi masalalarni muhokama qilib, oddiy ko'pchilik ovozi asosida

QAROR QILADI:

1. Maslahat-kengashi O'zbekiston Respublikasi Gender tenglikni ta'minlash masalalari bo'yicha komissiyasining ustuvor yo'nalishlari va tavsiyalariga amal qilgan holda qonuniylik, xotin-qizlar va erkaklarning teng huquqliligi, jinsi bo'yicha kamsitishga yo'l qo'yilmasligi, ochiqlik va shaffoflik prinsiplari asosida faoliyat yuritishi ta'minlansinlar.

2. O'zgidromet xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni yaratish va ularni takomillashtirish bo'yicha takliflarni hamda Kengashning bu boradagi qarorlarini ko'rib chiqish uchun O'zgidromet rahbariyatiga kiritib borilishini ta'minlasinlar.

3. Kadrlar bo'limi (Sh. Ibragimova, D. Samadxodjayeva) O'zgidrometda faoliyat yuritayotgan ayollarning yashash sharoitini o'rganib ular orasidan yosh bolali, kam ta'minlangan, boquvchisini yo'qotgan va ayollar daftarlariga kiritilganlarni aniqlab ro'yxat shakllantirilishini;

4. "Oila va xotin-qizlar masalalari bo'yicha boshlang'ich tashkiloti" ish tartibi va faoliyati bilan maqsadida hududiy boshqarmalarni tanishtirish va ular orasidan xotin-qizlar kengashi a'zolarini saylash bo'yicha video-konferens aloqasi orqali yig'ilish tashkillashtirilishini;

ishga kirish maqsadida murojaat qilgan nomzodlar bilan o'tkaziladigan suhbat yoki boshqa jarayonlarda, ish beruvchi tomonidan vazifa va lavozimlarga tayinlashda hamda kadrlar zaxirasini shakllantirishda gender tenglikni ta'minlash choralarini ko'rish, rahbarlik lavozimlariga iqtidorli, talabchan va mas'uliyatli xotin-qizlar nomzodlarini tavsiya qilinishi hamda ishga qabul qilish jarayonlarini meritokratiya tamoyili asosida amalga oshirilishini ta'minlasinlar.

5. O'zgidrometning Axborot-xizmati bo'limi (M.Ruziyeva) O'zgidrometda xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta'minlashga yo'naltirilgan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni hamda "Oila va xotin-qizlar masalalari bo'yicha boshlang'ich tashkiloti" Tartibini ishlab chiqilganligi va tashkil etilgani va bu borada amalga oshirilgan ishlarni ommaviy axborot vositalarida yoritib borish tavsiya etiladi.

6. Kadrlar bo'limi (D. Samadxodjayeva), Murojaatlar bilan ishlash va ijro bo'limi yetakchi mutaxassisi (D.Isxakova) bilan birgalikda, O'zbekiston Respublikasi Gender tenglikni ta'minlash masalalari bo'yicha komissiyasi so'roviga asosan, O'zgidrometda xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta'minlash borasida amalga oshirilgan ishlar to'g'risidagi ma'lumotlarni taqdim etib borilishini tashkil etsinlar.

7. O'zgidromet tizimida jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarning buzilishiga doir murojaatlarni belgilangan tartibda ko'rib chiqilishi ustidan qat'iy nazorat o'rnatsin va bu haqda Kengashga va O'zgidromet rahbariyatiga ma'lumot kiritib borsin.

8. Kengash kotibi Kengash a'zolari faoliyatini muvofiqlashtirib borilishini ta'minlasin.

9. Kengash qarorida belgilangan vazifalar ijrosini nazorat qilishni o'z zimmasida qoldiraman.

Yig'ilish kotibi
D.Isxakova